

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
HUZURIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARIDA
TEXNOLOGIYA (SERVIS XIZMATI YO‘NALISHI) FANI BO‘YICHA
NOMZODLARINI TANLOV ASOSIDA
ISHGA QABUL QILISH SINOVI UCHUN
FOYDALANILADIGAN TEST TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

**UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARIDA TEXNOLOGIYA
(SERVIS XIZMATI YO‘NALISHI) FANI BO‘YICHA NOMZODLARINI
TANLOV ASOSIDA ISHGA QABUL QILISH SINOVI UCHUN
FOYDALANILADIGAN TEST TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Mazkur spetsifikatsiya texnologiya (servis xizmati yo‘nalishi) fani bo‘yicha nomzodlarni ishga qabul qilish sinovida foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezoni va o‘tkazilish tartibiga qo‘yilgan talablarni aks ettiradi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholashning asosiy maqsadi texnologiya (servis xizmati yo‘nalishi) fani mutaxassislarining fan bo‘yicha nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari va kasbiy kompetensiyalarini kompleks baholashdan iborat.

Test topshiriqlari kasbiy faoliyatda zarur bo‘ladigan bilimlarni tanish va notanish vaziyatlarda qo‘llash, muammoli holatni tahlil qilish hamda maqbul yechimni tanlashga yo‘naltiriladi.

II. Me‘yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2026-yil 15-iyundagi 203-son “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari va umumiy o‘rta ta’lim muassasalari xodimlarini tanlov asosida ishga qabul qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi buyrug‘i.

III. Baholash qamrovi

Texnologiya (servis xizmati yo‘nalishi) fani bo‘yicha 40 ta test topshirig‘i taqdim etiladi va ularni bajarish uchun 60 daqiqa vaqt beriladi. Test topshiriqlarida yagona to‘g‘ri javobni talab qiladigan (Y1), moslashtirishni talab qiladigan (Y2) hamda ketma-ketlikni talab qiladigan (Y3) yopiq turdagi topshiriqlardan foydalaniladi. Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim hamda ko‘nikmalar bo‘yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

**Mutaxassislik fanlaridan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun
sohasi va baholanadigan bilim va ko‘nikmalari bo‘yicha taqsimoti**

1-jadval

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
TEXNOLOGIYA (servis xizmati yo‘nalishi)		40 ta

1. Oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish texnologiyasi va pazandachilik asoslari
(1 – 10 savollar)

Oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish texnologiyasi va pazandachilik asoslari (sut va sut mahsulotlari, go'sht, baliq, tuxum, sabzavotlar, donli mahsulotlar, un, xamir va xamir mahsulotlari, yog', konservalash)	- Oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish texnologiyasi va pazandachilik asoslari haqida nazariy bilimga ega bo'lish; - Oziq-ovqat xom ashyolarining tarkibi hamda ularning oziqaviy qiymati to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish; - Oziq-ovqat mahsulotlariga issiqlik ishlov berish usullari va jarayonlarini bilish hamda ularni amaliyotda qo'llay olish; - Oziq-ovqat mahsulotlarini sifat ko'rsatkichlari va ularni sovitish, muzlatish, quritish, saqlash usullarini bilish hamda amaliyotda qo'llay olish; -Oziq-ovqat mahsulotlariga issiqlik ishlovi berish jarayonida ularning tarkibidagi oziq moddalarda yuz beradigan o'zgarishlarni bilish hamda ushbu bilimlarni amaliyotda qo'llay olish; - Oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish jarayonida amal qilinadigan sanitariya-gigiyena talablarini bilish hamda ularni amaliyotda qo'llay olish; - Issiq va yaxna ichimliklar to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lish hamda ularni tayyorlash jarayonlarini amalda qo'llay olish; - Taom tayyorlash (quyuq va suyuq taomlar, sutli taomlar, shirinliklar, salatlar, tez tayyorlanadigan taomlar) texnologik jarayonlarini bilish va ularni amaliyotda qo'llay olish; -Ta'm beruvchi (turli xil ziravorlar) mahsulotlarni pazandachilikda tanlay olish va amaliyotda qo'llay olish; - Taomlarni estetik jihatdan bezash qoidalarini bilish hamda bezash jarayonini amaliyotda qo'llay olish; - Dasturxon tuzash odobi, tartibi, qoidalari va uni yig'ishtirish tartibini bilish hamda qo'llay olish;	10 ta
---	---	--------------

2. Materiallarga ishlov berish texnologiyasi va tikuvchilik asoslari (11 – 26 savollar)

Materiallarga ishlov berish texnologiyasi va tikuvchilik asoslari	- Materiallarga ishlov berish texnologiyasi va tikuvchilik asoslari bo'yicha nazariy va amaliy jihatdan keng qamrovli bilimlarga ega bo'lish; - Tolalar va iplarning kimyoviy tarkibi, kelib chiqishi, turlari haqida bilish; - Gazlamalarning (polotno, sarja, atlas, satin) to'qish usullarini, xususiyatlarini bilish; - Qo'lda bajariladigan qaviqlarni ketma-ketlikda to'g'ri va sifatli bajara olish; - Tikuv mashinalari va uskunalarning tuzilishi, ishlash prinsipi hamda ularni sozlash va ishlata olish; -Tikuv choklarining turlari, ularning vazifasi va qo'llanish sohalarini ajrata olish hamda amaliyotda to'g'ri qo'llay olish; -- Buyumlarga o'lchov olishni bilish (fartuk, kofta, ayollar ko'ylagi va shimi va yubka) va hisoblash formulasini hisoblay olish hamda ularni farqlay olish; - Andozalar asosida materiallarni tejamkor kesish usullarini bilish; - Fartuk, kofta, ayollar ko'ylagi, shimi va yubka kabi buyumlarni texnologik talablarga muvofiq bichish; -Buyum chizmalari va detal chizmalarini ularning modellashtirish chizmalariga moslashtira olish; -Issiqlik-namlik bilan ishlov berish texnologiyasini bilish va amalda qo'llay olish; - Kiyim detallarini yig'ish va yakuniy ishlov berish, mahsulotning estetik ko'rinishi va sifat ko'rsatkichlarini ta'minlash; -Ayrim kiyim detallariga ishlov berish texnologiyasi (yoqa, yeng, cho'ntak, manjet va boshqalar)ni bilish va amaliyotda qo'llay olish; -Furnitura va bezak materiallari (tugma, ilgak,molniya taqilmasi, bezak elementlar)ning	6 ta
--	--	-------------

	<i>turlari, xususiyatlari va ularni mahsulot dizaynida maqsadga muvofiq qo‘llay olish;</i>	
3. Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi (27 – 30 savollar)		
Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi	-Milliy hunarmandchilik turlari, milliy naqshlar va ramziy bezaklar ma’nosini bilish; -- - Hunarmandchilik asbob-uskunolari va ularning vazifasini bilish, hamda vazifasiga ko‘ra qo‘llay olish; - - Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi asosida buyum tayyorlash jarayonini amaliyotda qo‘llash;	4 ta
4. Ishlab chiqarish va ro‘zg‘orshunoslik asoslari (31 – 32 savollar)		
Ishlab chiqarish va ro‘zg‘orshunoslik asoslari	–O‘zbekistondagi ishlab chiqarish turlarini bilish va ularni farqlash; – - Texnologik jarayon tushunchasini bilish, texnologik jarayon strukturasi tahlil qilish; –Suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimining asosiy elementlarini bilish hamda quvurlarining turlarini farqlash; –Maishiy texnikalarda uchraydigan kichik nosozliklarni aniqlash, nosozliklarni tuzatish va uchraydigan nosozliklarning sabablarini tahlil qilish; – Kir yuvish mashinasi, turlari, tuzilishi, ishlash prinsiplarini va xavfsizlik texnikasi qoidalarini bilish hamda ulardan foydalana olish;	2 ta
5. Kasb tanlashga yo‘llash (33 – 36 savollar)		
Kasb tanlashga yo‘llash	– Kasblarni turli tasniflar asosida guruhlariga ajrata olish; – - Kasblar tasnifiga asosan mehnat turlarini tahlil qilish va tegishli kasb turini aniqlay olish; – - Kasb tanlashda shaxsning qiziqishlari, mayli va qobiliyatining ahamiyatini tushunish; – - Kasbga yaroqlilik, yaroqsizlik, mos kelish va havas tushunchalarini anglash; – - Professiogramma va kasb tanlash varaqasini farqlash hamda ulardagi ma’lumotlar asosida	4 ta

	shaxsning kasbga mosligini tahlil qilish; –Kasb tanlash varaqasidagi ma’lumotlarni tahlil qilish va kasb tanlashdagi ahamiyatini baholash	
6. Robototexnika asoslari (37 – 40 savollar)		
Robototexnika asoslari	–Arduino mikrokontroller platasining asosiy qismlari va vazifalarini aniqlash; – Arduino mikrokontroller platasini ishga tushirish va asosiy dasturlarni yozish uchun zarur amallarni bajarish; –Arduino mikrokontroller platasining texnik imkoniyatlarini turli loyihalarda qo‘llash va ularni tahlil qilish; –Texnik vazifalarni bajarishda Arduino mikrokontroller platasining ishlash samaradorligini tahlil qilish va baholash; – Robotlarning asosiy komponentlari va ularning vazifalarini izohlash hamda robotlarning turlarini funksiyalariga qarab taqqoslash;	4 ta
	Jami:	40 ta

Kognitiv ko‘nikmalar taqsimoti

2-jadval

T/r	Kognitiv daraja	Izohi
1	Bilish	Fanga doir nazariy ma’lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo‘llanilishini tushunish
2	Qo‘llash	Bilim, tushuncha va protseduralarni yangi (notanish) kontekstlarda qo‘llay olish
3	Mulohaza qilish	Faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish

IV. Baholash mezonlari

Test topshiruvchining umumiy natijasini (raw score) hisoblash uchun har bir to‘g‘ri javob uchun 2,5 ball, noto‘g‘ri javob uchun ball berilmaydi. Umumiy eng yuqori natija 100 ballni tashkil etadi.

V. Imtihon tartibi

Test topshiruvchi imtihonga shaxsini tasdiqlovchi hujjat bilan keladi va test tashkilotchisi tomonidan belgilangan tartibga rioya qiladi. Imtihon boshlanishidan oldin test topshiruvchilarga topshiriqlarni bajarish hamda javoblarni belgilash tartibi tushuntiriladi.

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet, quloqchin, elektron eslatma, ruxsat etilmagan bosma yoki elektron materiallardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish va nazoratchi ko'rsatmalariga amal qilmaslik taqiqlanadi. Qoidabuzarlik aniqlanganda, belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi va test topshiruvchi imtihondan chetlashtirilishi mumkin.

VI. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. 5-sinf Texnologiya-1-2 qism. O. Qo‘ysinov, N. Muslimov, D. Mamatov. O‘, Toxirov, U. Bozorov, F. Nasrullayeva. Ta’limni rivojlantirish markazi huzuridagi Ilmiy-metodik kengash nashrga tavsiya etgan. Novda- 2025.
2. 6-sinf uchun darslik Texnologiya: Sharipov Sh. S, Qo‘ysinov O. A., Toxirov O‘, O, Abdullayeva Q. M, Nasrullayeva F. A, Madaipov A. A. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021.
3. 7-sinf uchun darslik Texnologiya: Sharipov Sh. S, Qo‘ysinov O. A, Mamatov D.N, Toxirov O‘.O, Nasrullayeva F. A, Miraxmedova D.S, Aloviddinova N. M, Madaipov A. A. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.
4. 8-sinfi uchun darslik. Texnologiya. O‘.Tohirov, I.Karimov, M.M.Maxsumova. “Texnologiya” umumiy o‘rta ta’lim maktablarining.: “ILM ZIYO”. 2019.
5. 9-sinfi uchun darslik. Texnologiya. Z.Sattarova, N. Abdusalomova, N. Ahmedova “Texnologiya” umumiy o‘rta ta’lim maktablarining.: “O‘ZBEKISTON”. 2019 y.
6. Ovqat tayyorlash texnologiyasi va oziq-ovqat tovarshunoslik M. N. Mo‘minova, M.A. Maxsumova "ILM ZIYO" 2014
7. Maxsus materialshunoslik. X.Z. Ismatullayeva, A.Z. Abdullayev, M.Ismatullayeva “Iqtisod-Moliya” 2007
8. Tikuvchilik texnologiyasi asoslari A.T.Truxanova Toshkent O‘qituvchi 1996
9. Keng assortimentdagi kiyimlarni loyihalash, modellashtirish va badiiy bezash. S. Sh. Tashpulatov, M. K. Ramazonova, G. G‘. Alimova, Sh. G. Jo‘raeva. “Faylasuf”-2013
10. Tikuvchilik texnologiyasi va jihozlari. N. Gaipova, M. Tursunxo‘jayeva, Q. Abdullayeva, X. Boboxonova “Fan va texnologiya” nashriyoti 2016
11. Kasb tanlashga yo‘llash. N. Muslimov, R. Mullaxmedov “Iqtisod-moliya”- 2007

VII. Eslatma

Test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan manbalarda aks etgan qonunchilik, kasbiy mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi. Biroq topshiriqlar manbalardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri olinmaydi. Test topshiriqlari talabgorning kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish, bilimini amaliyotda qo‘llash va asosli qaror qabul qilish ko‘nikmalarini baholashga qaratiladi.